



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH DAVRLARI

Maksumov Mansurbek Xibzullo o'g'li,

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti”

kafedrası assistenti

mansurbekmaksumov@gmail.com

+998934115956

***Annotatsiya.** Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkor mamlakatda raqobatning zarur muhitini hosil qilib, bozor sharoitidagi ko'pgina o'zgarishlarga tezda moslasha oladi, ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohasida yangidan-yangi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi va mamlakatda ijtimoiy muhitini ta'minlash uchun o'rta sinfni shakllantirish manbai hisoblanadi. Xo'sh, «tadbirkor», «tadbirkorlik» tushunchalari qanday mazmunga ega va nimani anglatadi? Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish bosqichlari yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, kichik biznes, Avesto, bozor siyosati, ishlab chiqarish.*

Tadbirkorlik faoliyati tizimining alohida tahlili dastlab G'arbda boshlangan bo'lsa-da, uning mohiyati va rivojlanishiga taalluqli ko'p qirrali bilimlar Sharqda tarkib topib, so'ngra G'arbda ilgari surilganiga quyida zikr etiladigan dalillar guvohlik beradi. Ayniqsa, ular bu yo'nalishda shakllangan va hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan ta'limotlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, 3 ming yillik tarixga ega Zardushtiylik ta'limotining asosi bo'lmish «Avesto»da, musulmon olamining



allomalari ta'limotlari, jumladan, «Naqshbandiya», «Yassaviya», «Kubroviya» ta'limotlarida mujassamlangan. Ayniqsa, bujihatdan «Naqshbandiya» ta'limotining ildizlari chuqur mazmunga ega. «Naqshbandiya»ning «Dil ba yoru, dast ba kor», ya'ni «diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin», degan ta'limot asoschisi Xoja Baxouddin Naqshbandiy kimxobga naqsh bog'lashda tadbirkorlik mahoratini namoyish etib, halol mehnat bilan yashash zarurligini ibrat qilib ko'rsatgan. Ayrim manbalar uning mato to'qiydigan do'konlari borligiga ham ishora qiladi.

Ko'rinib turibdiki, Bahouddin Naqshband mashhur G'arb iqtisodchi olimi xususan, Vilyam Pettidan 400 yil muqaddam mehnat insonlarning yashash manbai ekanligini chuqur anglagan va amalda o'z faoliyati doirasida isbot etgan. Ammo Vilyam Pettining «Boylikning otasi mehnat, onasi esa yerdir» degan ta'limoti jahon iqtisodiy nazariyasi fanida yangi bosqich sifatida e'tirof etilgani holda, Naqshbandiyaning undan avvalroq hamda chuqur iqtisodiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lgan yuqorida qayd etilgan ta'limoti hozirgacha na G'arb va na mahalliy iqtisodiy adabiyotlarida munosib o'rin egallamagan. Tadbirkorlik bo'yicha bilim va amaliy faoliyatlar zaminimizda hukmdor bo'lgan buyuk shaxslar Sohibqiron Amir Temurning «Tuzuklari»da, Mirzo Boburning «Boburnoma» asarida yorqin ifodasini topgan.

A.Smitning qayd qilishicha, bozor jamiyat sotib olishni xohlagan va kerakli miqdordagi tovarlarni ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, A. Smit bozorning qudrati kuch ekanligini, u jamiyatni zarur tovarlar bilan doimo ta'minlashi va bu tizim o'z-o'zini muvofiqlashtirishini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, o'z-o'ziga qo'yib berilgan bozor tizimi rivojlanadi va bunday tizimibor xalqning boyligi ortaveradi.

XVIII asrdayog Fransuz iqtisodchisi R. Kantiolon, XIX asrda nemis klassik maktabi vakillaridan I. Tyunen va G. Mangolf hamda amerikalik iqtisodchi F. Nayt tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlarini tadqiq etganlar. R. Kantilon tadbirkorlikning muhim xususiyati risk ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha tadbirkorni oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lgan va risk qilishga



qodir bo'lgan, kelajakka intiluvchi, daromad olishdan umidvor bo'lgan va shu bilan birga yo'qotish va zarar ko'rishga ham tayyor bo'lgan har qanday shaxs deb ta'riflagan. XVIII - XIX asrlarda ijod qilgan R. Kantilon, Y. Tyunen, F. Kene, A.Smit, J.B. Sey iqtisodchi olimlar tadbirkorlikni va biznes, shuningdek, tadbirkor va mulkdor tushunchalarini aynan bir xil ma'noda izohlaganlar. Y. Shumpeter tadbirkor faoliyatining quyidagi maqsadli motivlarni ko'rsatib bergan: - hukmronlik, hokimiyat va ta'sir doirasiga ega bo'lish extiyoji; - g'alabaga erishish ishtiyoqi, o'z-o'zini va raqiblarini yengishga intilish; - ijod quvonchi. O'zbek olimlaridan I.E.Tursunov, A.B.Qurbonov, F.F. Mamatovlar quyidagicha ta'rif berishadi: biznes va tadbirkorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq; bo'lib, bir xil ijtimoiy – iqtisodiy asoslarga va 2 tamoyillarga ega tushunchalardir. «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Tadbirkorlik - mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir». O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» gi qonun asosida biznes va tadbirkorlik faoliyati tartibga solinadi. Ushbu qonunda ta'riflanishicha «tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlil bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir». Bu ta'rif ayni paytda biznesning ham mohiyatini ochib beradigan ta'rifdir. Tadbirkorlik bu o'z mohiyatiga ko'ra inson faoliyatining ko'p qirrali sohasi bo'lib, u yangilikni yaratish bilan bog'liq va san'at turi kabi ijodiy jarayondir. Tadbirkorlikning mohiyatini, uning harakat va imkoniyatlari doirasini yaxshiroq tushunib olish uchun, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi rolga bo'lgan qarashlar tizimi rivojini tashkiliy, siyosiy - iqtisodiy va ijtimoiy psixologik jihatlar nuqtai nazaridan umumlashgan holda tahlil qilamiz. O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevning tadbirkorlikni «daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-



kor, mashg'ulot) sohibkorlik- tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish», «...tadbirkorlik - pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish», deb ta'riflashgan.

Taniqli olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorning o'z faoliyati sohasida olib boradigan ishlari ko'p qirralidir. Bu bozor siyosatining o'zgarishi bilan yoki korxonaning ichki va tashqi omillari ta'sirida aniqlanadi. Lekin tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat (foyda) ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko'mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta'minlash zarurdir. Bozor sharoitida tadbirkorlikni boshqarishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish kerak:

- tadbirkor har doim bozordagi talab va taklifni e'tiborga olib ish ko'radi;
- tadbirkor samaradorlikni ta'minlovchi sa'y-harakatlar qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini qidiradi;
- biznesning pirovard natijalariga javob beradigan shaxslar, o'z bizneslarini erkin shart-sharoitlarda olib borishiga yetarli imkoniyatlar yaratadilar;
- kichik korxonaning pirovard natijalari, ya'ni uning oladigan foyda yoki zarari faqat bozordagi oldi-sotdi jarayonida ma'lum bo'ladi;
- kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkor o'z mablag'larini harakatga solib, bozorda qanday xavf-xatarga duch kelishi yoki yakuniy natija qanday bo'lishini aniq bilmaydi.

Bugungi sharoitda «tadbirkor» tushunchasi «menejer» tushunchasiga juda yaqin turadi. Shu bilan birga, tadbirkor mulkdor bo'lsa, menejer boshqaavchidir. Amalda esa, aksariyat mulkdorlar menejer vazifasini bajaradi, qator menejerlar esa o'zlari boshqarib turgan ishlab chiqarish korxonalariga ega bo'lib qolmoqda.



«Biznes» soʻzi inglizcha soʻz boʻlib, tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan faoliyatidir .

Tadbirkorlik shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat oʻz nomidan, oʻz mulkiy masʼuliyati va yuridik shaxsning yuridik masʼuliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor qonun tomonidan taʼqiqlanmagan barcha xoʻjalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish, sotib olish, maslahat berish, qimmatbaho qogʻozlar bilan ish olib borish bilan shugʻullanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasini tashkil qilish toʻgʻrisida”gi qarori.

3. Baltaboyeva G.R, Ergashev E.I va boshqalar. Oʻzbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T:“Iqtisod –moliya” nashriyoti,2015-yil6.www.ziyonet.uz,

<http://blokchain.community>